

## O'LKASHUNOSLIK MUZEYLARINING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI O'RNI

R.Usmanova

*Qarshi davlat universiteti Geografiya kafedrasida dotsenti.*

F.A.Ismatullayeva

*Qarshi davlat universiteti talabasi.*

**Annotatsiya:** Maqolada muzey tushunchalari bayon etilgan. O'zbekiston muzeylarining paydo bo'lish bosqichlari, tarixiy, madaniy yodgorliklarida foydalanib muzeylar tashkil etishning geografik xususiyatlari haqida bayon etilgan. Qashqadaryo viloyati ba'zi muzeylariga tavsif berilgan. Muzeylarni ta'lim tarbiyaviy roli ochib berilgan.

**Tayanch tushunchalar:** Muzey, eksponat, tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklar, moddiy va tasviriy narsalar, liboslar, suratlar, numizmatika, arxeologiya, asl nusxalar.

## РОЛЬ СЕЛЬСКИХ МУЗЕЕВ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

**Аннотация:** В статье описана концепция музея. Описаны этапы становления музеев Узбекистана, географические особенности создания музеев с использованием памятников истории и культуры. Описаны некоторые музеи Кашкадарьинской области. Раскрывается просветительская роль музеев.

**Основные понятия:** музей, экспонат, исторические, материальные и духовные памятники, материальные и изобразительные предметы, костюмы, картины, нумизматика, археология, подлинники.

## THE ROLE OF COUNTRY STUDIES MUSEUMS IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION

**Abstract:** The museum's concepts are explained in the article. The phases of the emergence of the museums of Uzbekistan, the geographical features of the establishment of museums using historical and cultural monuments are described.

Some museums of Kashkadarya region are described. The educational role of museums is revealed.

**Key words:** museum, exhibit, historical, material and spiritual monuments, material and pictorial objects, costumes, pictures, numismatics, archeology, originals.

Turli xil qiziqarli, nodir narsalarni, san'at buyumlarini to'plash va namoyish qilish qadimdan insoniyat madaniyatining bir qismi bo'lib kelgan. XVIII-XIX asrlardan muzeylarning shakllanishi va rivojlanishi ilmiy-tadqiqot ishlari, fond va ekspozitsiya va ko'rgazma faoliyatiga asoslangan zamonaviy madaniyat muassasaarining paydo bo'lishiga olib keldi. Muzey (yunoncha: – "muzalarga bag'ishlangan joy") madaniyat, san'at, adabiyot, fan saroyi, yoki ilohiy bino, uy, joy ma'nosini anglatadi. Qadimgi Yunonistonda "**museion**" deb ma'budalar sha'niga e'zozlanadigan maskanlarni aytganlar. Bu maskanlar tabiatning go'zal joylarida, tog' etaklarida, daryo va ko'l bo'ylarida, bog'-u rog'larda joylashgan. Muzeylar haqida quyidagicha ta'riflarni ko'rish mumkin: muzeylar o'tmishimizning ko'zgidir; muzeylar – ziyorat dargohidir; muzeylar-tabarruk, mo'tabar; muzeylar – boy madaniyatimizning o'chog'i muqaddas va tarbiya maskanidir [4; 268 b.].

Muzey tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma'rifiy muassasa. Muzey xazinasida, asosan, moddiy va tasviriy narsalar, shuningdek, san'at asarlari jamlanadi, shu bilan birga yozma manbalar (qadimdan hozirgi davrgacha bo'lgan tarixiy qimmatga ega qo'lyozmalar, bosma hujjatlar, kitoblar) saqlanadi. Muzeylar o'zlarining ilk paydo bo'lgan kundan boshlab o'z zamonasini aks ettirgan va talab-ehtiyojlarni ifoda qilgan, zamon ko'zgidir. Yig'ilgan va muzeyda saqlanayotgan barcha materiallar muzeyning ilmiy bazasini tashkil etadi va uning ijodiy faoliyatida asos bo'lib xizmat qiladi. Mana shu manbalar asosida muzeylar ilmiy tadqiqot va ilmiy hamda madaniy ma'rifiy ta'lim tarbiya ishlarini olib boradi.

Muzeylar madaniy-ma'rifiy muassasa hisoblanib, uning vazifasi aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, tarixiy hujjatlar, madaniy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, tabiiy boyliklardan namunalar jamlash va saqlash, ularni ilmiy jihatdan o'rganib ko'rgazmalarga qo'yish va keng xalq ommasiga havola qilishdan iborat. Muzeylar ma'naviy etuk, vatanparvar, komil insonni tarbiyalashda ahamiyatlidir. Muzeylarda saqlanayotgan uzoq o'tmishdan guvohlik berayotgan tarixiy ashyolar, bebaho qo'lyozmalar yosh avlodga ajdodlarimiz yuksak ma'naviyatidan hikoya qiladi. Bu o'z o'rnida yoshlar qalbida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosga hurmat, muhabbat tuyg'ularini uyg'otish bilan birga ularda vatanparvarlik tuyg'usini ham shakllantiradi.

O'lkashunoslik manbalari orasida haqiqiy ilmiy va madaniy, ma'rifiy muassasaga aylanib qolgan muzeyning o'rni va ahamiyati kattadir. U moddiy va ma'naviy madaniyat yodgorliklarini asl nusxalarini, arxeologiya, etnografiya, toponimikaga oid materiallarni to'playdi, saqlaydi va ilmiy asosda o'rganib tahlil qiladi, natijalarni esa ekspozitsiya sifatida ommalashtiradi [2; 40 b.].

Hozirgi kunda ochiq osmon ostidagi muzeylar ham paydo bo'ldi, ularning asosini me'moriy va arxeologik yodgorliklar tashkil etdi [3; 176 b.].

Muzeylar – o'lkashunoslik muzeylari va muzey-qo'riqxonalarda tabiat va uning tarkibiy qismlari, jamiyat va inson xo'jalik faoliyati, ularning o'zaro aloqadorligi haqida asl manbali bilimlar hisoblangan moddiy-ma'naviy yodgorliklar va tabiiy-ilmiy kolleksiyalar mavjudki, ularni o'rganish orqali geoekologik ta'lim-tarbiya hamda ekologik madaniyatni shakllantirish sifati va samaradorligi yanada ortadi, bu esa yoshlarning o'lka tabiatidan to'g'ri foydalanish, ularning atrof-muhitiga mas'uliyatli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini yanada rivojlantiradi [1;373b.].

Muzey turlari ko'p jihatdan unda saqlanayotgan kolleksiya fondlarining xarakteriga va ular faoliyatining yo'nalishiga bog'liqdir. Ijtimoiy vazifasiga ko'ra ilmiy tadqiqot-ma'rifiy va o'quv muzeyiga bo'linadi. Sohalar bo'yicha tarix, qishloq xo'jaligi, tabiatshunoslik, san'atshunoslik, adabiyot, texnikaga oid va

boshqa muzeylarga bo‘linadi. Shu bilan birga me‘morial va o‘lkashunoslik kabi muzey turlari bor.

Muzey ilmiy tadqiqot va tarbiyaviy ishlarni olib borishi bilan birga, qadimiy to‘plamlarni, qadimiy san‘at, madaniyat asarlarining yig‘adi va o‘rganadi, ilmiy hujjatlarni tayyorlaydi, muzey ashyolarini saqlash va ta‘mirlash tartibini yaratadi, monografiya, katalog, yo‘l-ko‘rsatkichlar nashr etadi; zamonaviy muzeyshunoslik ishlab chiqqan ilmiy usul va metodologiya asosida ekspozitsiyalarda ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Bu erdan turib o‘tmishni, tarixni ko‘rish, eslash, sezish, o‘rganish mumkin. Muzeyda saqlanayotgan barcha materiallar muzeyning ilmiy bazasini tashkil etadi va uning ijodiy faoliyatida asos bo‘lib xizmat qiladi. Mana shu manbalar asosida muzeylar ilmiy tadqiqot va ilmiy hamda madaniy ma‘rifiy ta‘lim tarbiya ishlarini olib boradi. Moddiy madaniyatimizning asosiy sohalaridan bittasi O‘zbekiston muzeylaridir. Muzeylar tarixiy yodgorliklar maskani, adabiyot, san‘at, urf-odatlarini, moddiy va maishiy hayotimizning, ya‘ni hayot obrazimizning bir ko‘rinishidir.

O‘zbekistonda muzeylar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ilk bor tashkil etilgan (1-jadval). Jumladan, 1876-yilda Toshkent o‘lkashunoslik muzeyi, O‘zbekiston tabiat muzeyi (1994-yildan) O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi 300 mingdan ziyod bebaho osori-atiqalar mavjud. 1896-yilda Samarqand xalq muzeyi (hozirgi Akmal Ikromov nomidagi) O‘zbekiston madaniyati va san‘ati tarixi davlat muzeyi. 1899-yilda Farg‘ona xalq muzeyi (hozirgi o‘lkashunoslik muzeyi). 1918-yilda O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi ochildi. Buxoro viloyati o‘lkashunoslik muzeyi ilk bor 1922-yilda tashkil etildi (1-jadval).

Muzeylarni zamonaviy ilmiy jihatdan tur va sohalar bo‘yicha tasniflanadi. O‘zbekistonda hozirgi kunda 350 dan ortiq muzey mavjud. O‘zbekistonda uchta – Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida yirik muzey-qo‘riqxonalar mavjud bo‘lib, ular tarkibida 38 ta muzey faoliyat yuritmoqda.

Ikkinchi jahon urushida erishilgan G‘alabani 75 yilligiga bag‘ishlab 2020-yilda ochilgan Toshkentdagi G‘alaba bog‘i va Shon-sharaf muzeyida yoshlarni vatanparvarlik tuyg‘usida tarbiyalash uchun etarli manbalar bor.

**XIX asr 2-yarmi va XX asrda tashkil etilgan  
muzeylar haqida ma'lumotlar**

<b>№</b>	<b>Tashkil etilgan vaqti</b>	<b>Muzey joylashgan shahar</b>	<b>Muzey nomlari</b>
1.	1876-yil	Toshkent	o'lkashunoslik muzeyi
2.	1896 -yil	Samarqand	xalq muzeyi
3.	1899-yil	Farg'ona	xalq muzeyi
4.	1918-yil	Toshkent	O'zbekiston davlat san'at muzeyi
5.	1920-yili	Namangan	o'lkashunoslik muzeyi
6.	1922-yil	Buxoro	o'lkashunoslik muzeyi
7.	1924-yil	Qo'qon	o'lkashunoslik muzeyi
8.	1926-yil	Toshkent	tabiat muzeyi
9.	1927-yil	To'tko'l	Qoraqalpog'iston Respublikasi o'lkashunoslik muzeyi.
10.	1934-yil	Andijon	o'lkashunoslik muzeyi
11.	1937-yil	Toshkent	O'zbekiston xalq amaliy san'ati muzeyi.
12.	1941-yil	Toshkent	Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi.
13.	1964-yil	Surxondaryo	o'lkashunoslik muzeyi.
14.	1970-yil	Samarqand	"Afrosiyob" tarixi muzeyi
15.	1984-yil	Mo'ynoq	Mo'ynoq ekologiya muzeyi

\*Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1999-yilda O'zbekistonda davlat tasarrufidagi muzeylar soni 81 taga etdi. Madaniyat vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, ularning 90 tasi davlat muzeylaridir. Bundan tashqari, O'zbekistonda 1992-yildan ko'plab xususiy sohaga taaluqli yangi muzeylar tashkil etildi. Bular taniqli o'zbek shoirlari, xalq baxshilari, olimlar va boshqa sohalarga oid muzeylardir. Jumladan, B.Mashrabning muzeyi Namanganda, hofiz Hojixon Boltaboyev nomli maqomchilar muzeyi Xorazmda, "Xorazm amaliy san'ati va tarixi" muzeyi Urganch shahrida, "Temirchlik muzeyi" Buxoroda, xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'glining uy muzeyi Samarqand viloyatida tashkil etildi. 1993-yilda O'zbekistondagi birinchi huquqshunos olima

ayol Xadicha Sulaymonova muzeyi, mashhur raqqosa Mukkarramaxonim Turg'unboyeva muzeyi Toshkentda ochilgan. Navoiyning Tomdi tumanida mashhur cho'pon, mehnat qahramoni J.Bashmanov muzeyi tashkil etildi. 1994-yilda xalq rassomi M.Rahimov muzeyi, 1996-yilda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan O'zbekiston gidrometeorologiya muzeyi, 1997-yilda S.Hamidovning uy muzeyi tashkil etildi. 1996-yil O'zbekistonlik sportchilarning jahon miqyosida erishgan yutuqlari va ishtiroklari haqida ma'lumotlar beradigan Olimpiya shon shuhrati muzeyi ochildi. 1996-yilda Temuriylar tarixi davlat muzeyi Toshkent shahrida tashkil etildi. Hozirgi kunda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi eng yirik ilmiy-ma'rifiy markaz hisoblanib, uning zahirasida 300 mingdan ziyod bebaho osori-atiqalar, arxeologiya, numizmatika, etnografiya, tasviriy san'at, foto va hujjatlar kutubxonasi mavjud. Muzeydagi bu manbalar yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda va barkamol avlod sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi xorijiy muzeylar va ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda ilmiy-madaniy aloqalarni rivojlantirish bo'yicha bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirmoqda.

So'nggi yillarda Qashqadaryo viloyatida ham muzeylar sohasida katta o'zgarishlar bo'ldi. Bu Qashqadaryo viloyatining mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi o'rnini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Shahrisabz shahridagi Amir Temur moddiy-madaniyat tarixi muzeyining yangi ko'rgazmasi va "Maqom" muzeyi, Qarshi shahrida Abdulla Oripov hamda Qatag'on qurbonlari muzeylari tashkil etilgan. Qarshi shahridagi "Vatanparvar bog'i" da viloyat tarixi va madaniyati muzeyi tomonidan II Jahon urushida qozonilgan G'alabaning 75 yilligiga bag'ishlangan ko'rgazma, vohada muzeyshunoslikka zamonaviy va kreativ yondashuv, yangicha qarashlar orqali jahon muzeyshunosligi tajribasini ilk bor amaliyotga joriy etilishini ko'rsatdi. Bu ochiq osmon ostidagi muzeyda Qarshi davlat universiteti Geografiya kafedrasida dotsenti P.R.Qurbonovning ilmiy va amaliy yordami bilan Qashqadaryo viloyatining relyefli ulkan mashtabdagi kartasi yaratilgan.

Qashqadaryo viloyat o'lkashunoslik muzeyi – madaniy-ma'rifiy muassasa. 1975-yilda Qarshi shahrida tashkil etilgan. Muzeyda tarix, xalq amaliy san'ati, tabiat, xotira va qadriyat bo'limlari bor. Muzey fondida 20 mingdan ziyod numizmatika, arxeologiya, tasviriy va amaliy san'at asarlari, tarixiy hujjatlar, nodir qo'lyozmalar, kitoblar, maishiy va etnografiyaga oid eksponatlar mavjud. Muzey ilmiy tekshirish ishlari olib boradi, fondini boyitadi, kitob, kataloglar nashr etadi, jumladan, Rimda fransuz tilida chop etilgan “Qarshi o'lkashunoslik muzeyidagi sharq qo'lyozmalari katalogi” (2004, 50 dan ortiq qo'lyozmalar haqida ma'lumotlar bor) va boshqalar. Mustaqillik yillaridan Qashqadaryo iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayoti sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar, fan taraqqiyotini namoyon etuvchi eksponatlar bilan boyitilmoqda.

Respublikamizdagi bir qator nufuzli muzeylar qatorida “Shahrisabz davlat muzey qo'riqxonasi” (1996-yil) ham o'zining nufuzi bilan ajralib turadi. Muzey fondiga asosan arxeologik, etnografik, numezmatik hamda amaliy san'at buyumlaridan iborat bo'lib, 2018-yil holatida 35000 ga yaqin eksponat mavjud.

Shahrisabzda davlat muzey qo'riqxonasi tarkibidagi muzeylardan biri bu Maqom muzeyidir. Ushbu muzeyda Ayritomdan topilgan “Arfa chalayotgan ayol tasviri”, maqom san'atiga oid eksponatlardan: cholg'u asboblari, musiqiy notalar, liboslar, suratlar, shashmaqom kitoblari va arxeologik qazishmalar natijasida tushirilgan eksponatlar o'rin olgan.

Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi muhim vazifalaridan biri yosh avlodni vatanparvarlik, xalqimiz tarixi va buyuk ajdodlarimiz merosi bilan faxrlanish ruhida tarbiyalashdir. Qashqadaryo viloyati muzeylari, yoshlarni madaniy, tarixiy va badiiy merosimiz, umumbashariy qadriyatlar, o'tmish, ilm-fan yodgorliklari, xalqimizning turmush tarzi va an'analari, san'at asarlari bilan tanishtirish va ularda Vatanga sadoqat tuyg'usini yuksal-tirishga yordam berib kelmoqda. Zero, yoshlarimiz milliy g'ururini baland, jonkuyar, fidoiy bo'lib kamol topishida-kelajagimiz mustahkamligida muzeylarning o'rni kattadir [4; 156-170 b.].



Yosh avlodga o'lkamizning tabiati va tarixi, ma'naviy madaniyati, san'ati va boshqa sohalari haqida keng hamda chuqur bilim berish, kelajak avlodni Vatanga muhabbat, uning tarixiy va madaniy merosiga hurmat tuyg'ularini shakllantirish va tarbiyalash uchun muzeylarni o'rganish, bilish va o'tmish sirlaridan voqif bo'lish asosiy vazifalardan biridir. Hozirgi davrda ota-bobolarimiz bizga meros qilib qoldirgan eng boy ma'naviy va axloqiy meros-muzey ma'naviy hayotning bardavom omiliga, tarixiy-madaniy merosni saralash, saqlash va namoyish etish markaziga, tarixiy ong va axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirish ishiga aylandi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar.***

1. Avazov Sh., Saydamatov F., Allaberganov H. "Biosfera (ekosfera) va odam (jamiyat)" tizimida geoekologiya va geoekologik o'lkashunoslik // Toshkent "Innovatsiya-ziyo" 2019 y. – 373
2. Nabiev A, Tarixiy o'lkashunoslik. – Toshkent: "O'qituvchi", 1979. – 40 b.
3. Ochildiev F.B. Tarixiy o'lkashunoslik (o'quv qo'llanma).- Toshkent «Donishmand ziyosi» 2020.-200 b.
4. Usmanova R.va b. O'lkashunoslik (o'quv qo'llanma).- Qarshi: "Fan va ta'lim" nashriyoti, 2023. – 268 b.
5. Abdullayev S. I., Murtazayev B. C. Ziyorat turizmi va sakral geografiyaning vazifalari //ЎЗБЕКИСТОН ГЕОГРАФИЯ ЖАМИЯТИ X СЪЕЗДИ МАТЕРИАЛЛАРИ (Тошкент шаҳри, 2019 йил 6-7 декабрь. 22-24б.
6. Назаров М., Муртазаев Б., Якшибоев Б. АНТРОПОГЕН ЛАНДШАФТЛАРНИ ТАДҚИҚ-ЭТИШНИНГ ИЛМИЙ ВА НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 726-731.
7. Абдуллаев С. И., Муртазаев Б. Ч., Назаров М. Г. THE NATURAL POTENTIAL OF THE LANDSCAPE //Life Sciences and Agriculture. – 2021. – №. 1. – С. 135-140.
8. Муртазаев Б. Ч. К вопросу изучения физико-географических процессов Юго-Западного Гиссарского хребта на примере Яккабогского лесничества //Экономика и социум. – 2022. – №. 11-2 (102). – С. 518-529.
9. Safarov I. B. Geographical features of pilgrimage tourism (in the case of Kashkadarya region) //Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 321-324.
10. Safarov I. B., Rasulov F. I. PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM (ON THE EXAMPLE OF KOSON DISTRICT) //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 189-191.



11. Усманова Р. Оптимизация использования туристических ресурсов Кашкадарьинской области // Ўзбекистонни топ ўн туристик худудлар қаторига киритиш истиқболлари: барқарор ривожланиш имкониятлари” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжуман материаллари тўплами Бухоро-2020 йил 11-12 декабрь. 133-135 б.
12. Усманова Р., Бердикулова М.Т. ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ С. 97-100
13. Усманова Р. МАТЕРИАЛЫ VIII Международной научно-практической конференции «СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ ТУРИЗМА» 29-30 ноября, 2019 г., г. Алматы, Казахстан
14. Usmanova R. MATERIALS OF VIII International Scientific and Practical Conference “CONTEMPORARY PROBLEMS OF DEVELOPMENT OF TOURISM SPHERE” November 29-30, 2019, Almaty, Kazakhstan Алматы, 2019
15. Усманова Р. Problems of developing ecotourism in Kashkadarya region // Международная конференция «Прикладная экология и устойчивое развитие». Тошкент-2006. 243-245 б.
16. Safarov I. B., Toshquvvatov I. T. RECREATIONAL AND TOURISTIC OPPORTUNITIES OF UZBEKISTAN’S MOUNTAINS // Экономика и социум. – 2023. – №.11(114). – С. 303-312.
17. Сафаров И. Б., Халилов Н. Х. ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА ВЕРХНЕ-КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 707-713.